Fan va ishlab chiqarish hamkorligi: dolzarb muammolar va amaliy yechimlar

// 24 December 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/fan-va-ishlab-chiqarish-hamkorligi-dolzarb-muammolar-va-amal



Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish, qolaversa, importni maqbullashtirish imkonini beradigan muhim omil.

Shu ma’noda “O‘zkimyosanoat” AJ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan doimiy hamkorlik qilib kelmoqda.

Jamiyatda bo‘lib o‘tgan navbatdagi uchrashuvda ishlab chiqarish jarayonida uchrayotgan muammolarni hal etish yuzasidan fikr almashildi. Xususan, texnik suvlar tarkibidagi sulfat ionlarini tozalash, fosfogipsni qayta ishlash hamda import qilinadigan terpen moylarining muqobilini ishlab chiqish kabi bir qator masalalar tahlil qilindi. Shu bilan birga tarmoq korxonalarida istiqbolli loyihalarni amaliyotga tadbiq etish, nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion tadqiqotlar olib borishga ham e’tibor qaratildi.